

O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA INKLYUZIVLIK VA UNING MOHIYATI

Otabekova Mohinur Mansurbek qizi

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Xalqaro munosabatlar fakulteti 4-kurs talabasi
E- mail: mohinurotabekova05@gmail.com*

Annotatsiya. *Ushbu maqola O'zbekiston ta'limida inklyuzivlikni keng qamrovda yoritib beradi. Asosan, inklyuziv ta'lim tushunchasi va O'zbekistondagi ta'lim tizimining umumiy ko'rinishi hamda inklyuziv ta'limning ahamiyati, ya'ni har bir bola uchun ta'lim imkoniyatlari va jamiyatdagi tenglikni ta'minlashdagi roli ko'rsatiladi. Shuningdek, O'zbekistonda inklyuziv ta'limning rivojlanishi va davlat hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan dasturlarning ahamiyati va inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari, jumladan, har xil ehtiyojlarga moslashish va o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlik muhimligini ochib beradi. O'zbekistondagi inklyuziv ta'lim muammolari, xususan, resurslar va infratuzilma yetishmovchiligi va o'qituvchilarni tayyorlash masalalari ko'rib chiqiladi. Kelajakda inklyuziv ta'limdagi innovatsion yondashuvlar jamiyatda ushbu tizimni takomillashtirish orqali ta'lim tizimining ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanishini ta'minlashi mumkin.*

Kalit so'zlar: *Inklyuziv ta'lim, ta'lim tengligi, ijtimoiy integratsiya, maxsus ehtiyojli ta'lim, O'zbekiston ta'lim tizimi, hukumat dasturlari, xalqaro tashkilotlar, ta'lim islohoti, o'qitish metodikasi, o'qituvchilar malakasini oshirish, resurslarni taqsimlash, infratuzilmani rivojlantirish, teng imkoniyatlar, jamiyat ishtiroki.*

INCLUSIVITY IN THE UZBEKISTAN EDUCATION SYSTEM AND ITS ESSENCE

Otabekova Mohinur Mansurbek qizi

*University of World Economy and Diplomacy
4rd year student, Faculty of International Relations
E- mail: mohinurotabekova05@gmail.com*

Annotation. *This article provides a comprehensive overview of inclusiveness in Uzbek education. Basically, the concept of inclusive education and a general overview of the education system in Uzbekistan are presented, as well as the importance of inclusive education, namely its role in ensuring educational opportunities for every child and equality*

in society. It also reveals the development of inclusive education in Uzbekistan and the importance of programs implemented by the state and international organizations, and the basic principles of inclusive education, including the importance of adapting to different needs and cooperation between teachers and students. The problems of inclusive education in Uzbekistan, in particular, the lack of resources and infrastructure, and the issues of teacher training, are considered. In the future, innovative approaches to inclusive education can ensure social justice and sustainable development of the education system by improving this system in society.

Keywords: *Inclusive education, educational equity, social integration, special needs education, the education system of Uzbekistan, government programs, international organizations, education reform, teaching methodology, teacher training, resource allocation, infrastructure development, equal opportunities, community participation.*

Kirish

Inklyuziv ta'lim deganda barcha bolalarning, shu jumladan, maxsus ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ham ta'lim olish imkoniyatlarini ta'minlashga qaratilgan yondashuv tushiniladi. Ushbu model, har bir bolaning individual xususiyatlarini, qobiliyatlarini va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ta'lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi — har bir bolaning o'z imkoniyatlarini amalga oshirish va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishini ta'minlashdir. Inklyuziv tuzilishga ega ta'lim muassasalari birinchi bo'lib Rossiyada 1980-1990-yillar paydo bo'lgan.

O'zbekistonda ta'lim tizimida so'nggi yillarda sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ldi. “Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi”, “Ta'lim to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Qonuni va “O'zbekiston-2030” strategiyasi doirasida ta'lim tizimini isloh qilish va inklyuzivlikni ta'minlashga oid chora-tadbirlar ko'zda tutilgan.¹⁸² Ushbu ta'lim to'g'risidagi davlat islohotlari ta'lim tizimidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan va bugungi kunda o'z samarasini ko'rsatyapti. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bu jarayonda davlat va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik muhim rol o'ynaydi. Ta'lim tizimi umumiy ta'lim, maktabgacha ta'lim va maxsus ta'lim muassasalarini o'z ichiga oladi, bunda har bir bola uchun ta'lim imkoniyatlarini yaratish maqsad qilingan. Shuningdek, O'zbekiston hukumati inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun bir qator dasturlarni amalga oshirmoqda. Bundan tashqari, “O'zbekiston-2030” strategiyasi asosida ta'lim tizimidagi inklyuzivlikni o'lchash va baholash maqsadida maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasi va nogironligi bo'lgan

¹⁸² <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

bolalar uchun ta'lim imkoniyatlari batafsil ko'rsatilgan. Inklyuziv ta'limda har bir bolaning o'z ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim olish ta'minlanadi. Ushbu yondashuv, har bir bolaning qobiliyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olib, ta'lim jarayonini shaxsga moslashtirishni nazarda tutadi. Demak, inklyuziv ta'lim tizimi ijtimoiy modeliga asoslangan holda yuritiladi, ya'ni har bir bolani ehtiyoj va imkoniyatlarini hisobga olgan holda nafaqat sog'lom bolalar, balki nogironligi bor bolalar ham o'zlari xohlagan maktab muassasalarida ta'lim olish huquqiga ega degan xulosaga kelinadi. Bola huquqlari xalqaro Konvensiyasiga asoslanib, yaxshi maktab ta'limini uch xil ko'rinishini ko'rib chiqishimiz mumkin, bular:

- mos keluvchi
- rivojlantiruvchi
- inklyuziv

Inklyuziv ta'lim orqali quyidagi asosiy jihatlar amalga oshiriladi:

- **Individual yondashuv.** Har bir bola uchun alohida ta'lim rejasi ishlab chiqiladi. Bu reja o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi va har bir bolaning o'z qobiliyatlarini amalga oshirishga yordam beradi.

- **Maxsus yordam.** Maxsus ehtiyojlari bo'lgan bolalarga qo'shimcha yordam va resurslar taqdim etiladi. Masalan, terapevtik xizmatlar yoki individual o'qituvchilar orqali bolalarning ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

- **Ijtimoiy integratsiya.** Ta'lim muassasalarida turli qobiliyatga ega bolalar birgalikda o'qiydi. Bu jarayon, bolalarning ijtimoiy hayotga moslashishiga yordam beradi va do'stlik aloqalarini rivojlantirish imkonini yaratadi.

Ushbu jarayonlar bolalarning o'z-o'zini anglashini oshiradi va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishlariga yordam beradi, shuningdek, ularni kelajakdagi muvaffaqiyatlariga tayyorlaydi. Jamiyatda tenglikni oshirish va har bir shaxsning qadrini tan olishga ko'maklashadi. Shu bilan birga inklyuziv ta'lim farqlilikni qabul qilishni rag'batlantiradi. Ya'ni, o'quvchilar bir-birlarining farqlarini tushunishga va hurmat qilishga o'rganadilar, bu esa jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga olib keladi. Shuningdek, bu tizim orqali ta'lim imkoniyatlari barcha bolalarga teng ravishda taqdim etiladi. Bu jarayon jamiyatning har qanday ijtimoiy guruhini birlashtirishga yordam beradi va ijtimoiy adolatni ta'minlashi bilan birga maxsus ehtiyojlari bo'lgan bolalarni jamiyatdan ajratmaslik orqali, ularni qabul qilish va qo'llab-quvvatlash muhitini yaratadi. Bu jarayonlar ijtimoiy barqarorlik va farovonlikni ta'minlashga yordam beradi.

O'zbekiston hukumatining ta'lim sohasidagi dasturlari

O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar mamlakat hukumati va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik natijasida amalga oshirilmoqda.

Ushbu dasturlar, maxsus ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish va ijtimoiy integratsiyani ta’minlash maqsadida yaratilgan.

O‘zbekiston hukumati ta’lim sohasida bir qator dasturlarni amalga oshirmoqda. Xususan, 2020-yilda qabul qilingan “Ta’limni rivojlantirish bo‘yicha milliy strategiya” inklyuziv ta’limni rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu strategiya, ta’lim muassasalarida maxsus ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berish jarayonini yaxshilashni maqsad qiladi. Shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limni joriy etish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. Bu dasturlar, bolalarning rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratishga qaratilgan. UNICEF O‘zbekistonda maxsus ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida turli loyihalarni amalga oshirmoqda. Masalan, UNICEF va O‘zbekiston ta’lim vazirligi hamkorligida amalga oshirilayotgan “Inklyuziv ta’limni rivojlantirish” loyihasi. Ushbu loyihada maxsus ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan ishlash uchun o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlari ishlab chiqilgan. O‘qituvchilar, bolalarning ehtiyojlarini qanday aniqlash va ularga qanday yordam berish kerakligini o‘rganadilar. Shuningdek, ta’lim muassasalarida resurs markazlari tashkil etilgan bo‘lib, bu markazlar maxsus ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun qo‘shimcha materiallar va yordam resurslarini taqdim etadi. Ushbu loyihalar doirasida o‘qituvchilarni tayyorlash va maxsus yordam ko‘rsatish tizimlarini rivojlantirishga e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga Islom Taraqqiyot Banki O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish uchun moliyaviy yordam va texnik ko‘mak ko‘rsatadi. Bankning dasturlari, ta’lim infratuzilmasini yaxshilash va maxsus ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun qo‘shimcha resurslar taqdim etishga qaratilgan. Bu harakatlar natijasida hozirgi kunda inklyuziv ta’lim tizimida tahsil olib o‘zini qobiliyatlarini ko‘rsatib, muvaffaqiyatga erishayotganlar soni ko‘paymoqda.

Kelajak istiqbollari

O‘zbekistonning kelajakdagi ijtimoiy barqarorlik va tenglikni ta’minlashda inklyuziv ta’limni o‘rni katta. Shu o‘rinda ta’lim muassasalarida maxsus ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun mos infratuzilma yaratish zarur. Bu, o‘z navbatida, ularning ta’lim jarayonida yanada faol ishtirok etishlariga yordam beradi. Innovatsion o‘qitish usullarini qo‘llash va maxsus ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan ishlash uchun o‘qituvchilarni doimiy ravishda tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Masalan, ta’lim muassasalarida maxsus ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun mos infratuzilma (liftlar, maxsus sinf xonalari, oson kirish imkoniyatlari) yaratilishi kerak. Bunda, arxitektura va dizayn standartlariga rioya etish muhimdir. Har bir ta’lim muassasasida maxsus ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun resurs markazlari tashkil etilishi, bu markazlarda qo‘shimcha yordam va materiallar taqdim etilishi zarur. Shu kabi harakat choralari orqali inklyuziv tizimni yanada takomillashtirishga erishish mumkin. Bundan tashqari, jamiyatda inklyuzivlikni oshirish uchun bir qancha takliflar amalga oshirilishi

kerak. Masalan, maxsus ehtiyojlari bo‘lgan bolalar haqida jamiyatda xabardorlikni oshirish uchun targ‘ibot kampaniyalarini o‘tkazish. Bu, farqlilikni qabul qilish va ijtimoiy integratsiyani kuchaytirishga yordam beradi; inklyuziv tadbirlarni (masalan, festival, seminarlar) o‘tkazish orqali maxsus ehtiyojlari bo‘lgan bolalar va ularning oilalarini jamiyatga jalb qilish; mahalliy jamoatchilik va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda inklyuziv ta’limni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish; ta’lim muassasalarida har bir bolaning individual ehtiyojlariga mos ravishda ta’lim berish tizimini joriy etish.

Xulosa

O‘zbekistonning kelajagi uchun inkluziv ta’limning o‘mi juda muhimdir. Ta’lim muassasalarida maxsus ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun mos infratuzilma yaratish, innovatsion o‘qitish usullarini qo‘llash va o‘qituvchilarni tayyorlash orqali inklyuziv ta’limni rivojlantirish mumkin. Ushbu yondashuvlar, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va farqlilikni qabul qilishni kuchaytirishga yordam beradi. Kelajakda inkluziv ta’lim O‘zbekistonda ta’lim sohasidagi yangiliklar va islohotlarning asosiy qismi bo‘lishi kutilmoqda. Bu, shuningdek, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim omil hisoblanadi. Umuman olganda, inklyuziv ta’lim O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, shuningdek, har bir fuqaroning ta’lim olish huquqini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayon, jamiyatda ijtimoiy adolat va tenglikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qurbonova, M. F. (2023). Inklyuziv ta’lim va uning mohiyati. *Research and Education*, 248-290. <http://sjifactor.com/passport.php?id=22258>
2. Kadirova, O. K. (2022). Boshlang‘ich ta’lim rivojlantirish muammolari va istiqbollari. *Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish*, 403(1), 18-19.
3. Kadirova, O. K. (2022). Use of the Neurolinguistic Programming Method to Achieve the Goals of the Educational Process. *International Scientific Journal Theoretical & Applied Science*, 10(12), 188-192.
4. Guljamol Bakhramova. (2024). Inklyuziv ta’limni tashkil etishda innovatsion yondashuvlar: muammolar va yechimlar. *Nordic Studies in Academic Research*. <https://research.nordicuniversity.org/index.php/nordic/article/view/1112>
5. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yilda “O‘zbekiston-2030” strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida (2023). Lex.uz. <https://lex.uz/uz/docs/-6600390?ONDATE=14.12.2023&ONDATE2=12.09.2023&action=compare>